

"XX asrda Xalq diplomatiyasining rivojlanishida ilm-fanning o'rni" mavzusida onlayn videokonferensiya tashkil etildi

O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazining tashabbusi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi, Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti ko'magida "Tinchlik va taraqqiyot yo'lida butunjahon ilm-fan kuni"ga bag'ishlangan "XX asrda Xalq diplomatiyasining rivojlanishida ilm-fanning o'rni" mavzusida onlayn videokonferensiya tashkil etildi.



Videokonferensiyadan ko'zlangan asosiy maqsad turli millat va elatlar vakillari - olimlar, o'qituvchilar, talabalar, sportchilar, ShHT mamlakatlari ayollari hamjamiatlarining o'zaro anglashuvi, bag'rikenglik munosabatlarini o'rnatish va yanada rivojlantirishda xalq diplomatiyasi mexanizmlaridan to'liq foydalanish, ilm-fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya sohalarining xalq diplomatiyasi instituti faoliyatidagi o'rni va ahamiyatini o'rganishning muhim masalalari, shuningdek, axborotlashgan jamiyat davrida xalq diplomatiyasining vazifalarini muhokama qilish edi.

Ushbu konfereniyada O'zR FA Botanika instituti direktori, akademik K.Tojiboyev hamda O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Mufovqglashtiruvchi metodik markazi bo'lim mudiri M.Rahimov ishtirot etdi.



Ilm-fan va ta'lim jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuchdir. Shu munosabat bilan yoshlarning oliy o'quv yurtlariga, shu jumladan, chet davlatlardagi oliy o'quv yurtlariga kirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirish va ularga shart-sharoitlarni yaratish juda ham zarurligi haqida videokonferensiya davomida ta'kidlab o'tildi.

Tadbir ishtirotchilari kelgusida shu kabi tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazish haqida kelishib oldilar.